

**DAROMAD VA UNING TURLARI. INVESTETSION DAROMADNING
IQTISODIYOTIMIZDA TUTGAN O'RNI**

M.Ibodullayeva

Toshkent Moliya instituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8372028>

Annotatsiya. Ushbu maqolada daromad tushunchasi, uning turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek iqtisodchilar hozirda ko'p ishlatayotgan atama- investetsion daromad haqidagi statistik ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: daromad, marjinal daromad, yalpi daromad, o'rtacha daromad, investetsion daromad.

**INCOME AND ITS TYPES. THE ROLE OF INVESTMENT INCOME IN OUR
ECONOMY**

Abstract: this article provides information about the concept of income and its types. Also, statistical information about investment income, a term that economists use a lot at the moment, is given.

Key words: income, marginal income, gross income, average income, investment income.

**ДОХОД И ЕГО ВИДЫ. РОЛЬ ИНВЕСТИЦИОННОГО ДОХОДА В НАШЕЙ
ЭКОНОМИКЕ**

Аннотация. в данной статье представлена информация о понятии дохода и его видах. Также приводятся статистические данные об инвестиционном доходе – термине, который сейчас часто используют экономисты.

Ключевые слова: доход, предельный доход, валовой доход, средний доход, инвестиционный доход.

Kishining ma'lum vaqt davomida (bir oy yoki bir yilda) ishlab topgan va qo'lga kiritgan barcha moddiy hamda pul tushumlari daromad deb ataladi. Daromad bevosita mehnat yoki biror mulk(boylik)ni ishlatish evaziga hosil qilinishi mumkin.¹

Daromadning quyidagi turlari mavjud:

1. Yalpi daromad (Dya)-muayyan vaqtda firma yoki tashkilotning jami daromadi hisoblanib, va bunda daromad barcha sotilgan tovar va xizmatlardan kelgan tushumdan iborat.
2. O'rtacha daromad (Do'rt)-tovar birligini sotishdan kelgan pul tushumidir va uni

¹ E.Sariqov, B.Haydarov Iqtisodiy bilim asoslari Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2014,55-bet

aniqlash uchun yalpi daromad sotilgan tovarlar miqdoriga bo'linadi.

3. Marjinal daromad (Dmar)-qo'shimcha Tovar birligini sotishdan kelgan daromaddir. Uni aniqlash uchun tovarni sotishdan tushgan daromad-pul o'simi(Ad) sotilgan tovarlar o'simi(AQ)ga bo'linadi.

Bundan tashqari mashhur iqtisodchilar, xususan Warren Buffet hozirda daromadning turli manbalariga egalik qilish muhimligini ta'kidlab o'tgan va ular daromadni turli guruhga bo'lishgan:

Erishilgan daromad (earned income)-daromadning asosiy turini tashkil qilib, unga biznesdan olingan foyda hamda oylik maoshlarni, bonuslarni va marjinal daromadni kiritamiz. Oylik maoshlar olishning muammoli tarafi shundaki, ishchilar uchun oylik miqdorni oshirish qiyin hisoblanadi. Ma'lumki, ishchilarning oylik maoshlari ular bajargan ish miqdori (ishbay) yoki ketgan vaqt (vaqtbay) sarfiga qarab beriladi. Ishchilar ko'proq maosh olishi uchun, ko'proq ishlashlari kerak, biroq inson yoshi ortgani sayin uning faolligi pasayib boradi va bu holat oylik maoshlarining ham pasayishiga olib keladi. Shuningdek, bu turdagi daromad eng ko'p soliqqa tortiladigan daromad turlaridan biri hisoblanadi. Masalan, 2022-2023-yillarda federal hukumat erishilgan daromaddan soliq olishning 7 turini ajratib ko'rsatdi va bu guruhlardagi ko'rsatkichlar 10% va 30% orasida yotadi. ²

Investesion daromad aynan belgilangan muddatda olinmaydi, qachon iste'molchi ular kiritgan investetsiyadan foydalanganda investorlar daromad qilishi mumkin.

Investetsion daromad- qilingan investetsiyalardan olingan daromad. Ularga quyidagilarni kiritamiz:

--ustama foiz - bankdan qarz olganda to'lab boriladigan foiz;	--divedendlar-aksiyadorlarga sarmoyasi uchun to'lanadigan ulush;	--rental daromad- biror bir joydan foydalanilishga berishdan olinadigan daromad.	--kapital foyda- mulk savdosidan keladigan foyda;
---	--	--	---

1-rasm. Investetsion daromad turlari ³

² <https://www.investopedia.com/terms/e/earnedincome.asp#toc-example-of-earned-income>

³ Muallif ishlanmasi


Erishilgan daromad turiga nisbatan investetsion daromaddan kamroq soliq ushlab qolinadi. Xususan, O'zbekistonga xorijdan kiritilgan investetsiyalar miqdori 2023-yilning birinchi choragida 170.88 AQSH dollariga ortdi.⁴

2023-yilning 1-avgust holatiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar kiritilgan kompaniyalar soni 17 659 birlikka yetdi. Statistika qumitasi bergan ma'lumotlarga ko'ra bu ko'rsatkich 2019-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1.8 marta ko'p:

2019-yil – 9 642 ta;
2020 -yil– 11 726 ta;
2021-yil – 13 465 ta;
2022 -yil – 14 993 ta;
2023-yil – 17 659 ta

1-jadval⁵

O'zbekistonga kiritilgan investetsiyalar miqdori yillar kesimida



⁴ <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/foreign-direct-investment>

⁵ <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/foreign-direct-investment>

REFERENCES

1. E.Sariqov, B.Haydarov Iqtisodiy bilim asoslari Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2014,55-bet;
2. [2.https://www.investopedia.com/terms/e/earnedincome.asp#toc-example-of-earned-income;](https://www.investopedia.com/terms/e/earnedincome.asp#toc-example-of-earned-income;)
3. [3.https://tradingeconomics.com/uzbekistan/foreign-direct-investment;](https://tradingeconomics.com/uzbekistan/foreign-direct-investment)
4. [4.https://www.ceicdata.com/en/indicator/uzbekistan/annual-household-income-per-capita;](https://www.ceicdata.com/en/indicator/uzbekistan/annual-household-income-per-capita)
5. [https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/mikroiqtisodiyot-2.](https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/mikroiqtisodiyot-2)
6. **Ganiyeva, M. (2023). THE MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPING THE LOGICAL THINKING OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS (IN MATHEMATICS LESSONS). Science and innovation, 2(B3), 30-33.**
7. **Ganieva, M. (2023, June). EMPOWERING LOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH TIPS TECHNOLOGY. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 12, pp. 62-63).**

MODERN SCIENCE
& RESEARCH